



YANGI TOSHKENT XALQARO AEROPORTI O‘ZBEKISTONNI SHARQ VA G‘ARB, JANUB VA SHIMOLNI BOG‘LOVCHI YIRIK AVIATSIYA XABIGA AYLANTIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-oktabr kuni Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport loyihasi taqdimoti bilan tanishdi hamda mazkur ulkan majmua qurilishi boshlanishiga bag‘ishlangan marosimda ishtirok etdi.



Izchil taraqqiy etib, ulkan megapolisga aylanayotgan Toshkent shahriga dunyoning turli mintaqalaridan sayyohlaru tadbirkorlar, investoru davlat arboblarning tashrifi ko‘payib bormoqda. Aniq raqamlarda aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston dunyoga keng ochilganidan so‘ng xorijiy sayyohlar soni 3 milliondan 10 millionga oshdi. 2030-yilga borib, 15 millionga yetadi.

Yaxshi qo‘shnichilik aloqalarining tiklangani, chegaralarning ochilgani natijasida odamlar uchun mintaqamiz bo‘ylab bemaol harakat qilish imkoniyati yaratildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bunyod etilayotgan Yangi Toshkent shahri ham qulay joylashuvi, investitsiya jozibadorligi, yashash uchun barcha sharoitga egaligi bois, g‘oyat gavjum maskanlardan biri bo‘lishi kutilmoqda.

Shunga muvofiq, transport infratuzil-masining barcha yo‘nalishlari mutanosib rivojlantirilmoqda. Ayniqsa, aviatsiya sohasida yangi ekotizimni shakllantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, hududlardagi 7 ta xalqaro aeroport zamon talablari asosida rekonstruksiya qilinaypti.

Mo‘ynoq, Qo‘qon, Zomin, Shahrisabz, Sariosiyo, So‘x tumanlarida yangi aeroportlar barpo etilib, ularning soni 18 taga yetkazildi.

Eng muhimi, sohada raqobat muhiti yaratilgani sababli 15 ta yangi aviakompaniya paydo bo‘ldi. Ularning aviaparkidagi havo kemalari soni 26 tadan 105 taga yetdi.

Hozirda Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Koreya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Turkiya, Rossiya, Polsha kabi davlatlarning 51 ta aviakompaniyasi O‘zbekistonga muntazam qatnovlarni amalga oshirmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida kelgusida ham transport infratuzilmasi jadal rivojlantirilishini ta’kidladi.

Jumladan, kelgusi besh yilda aviaparkdagi havo kemalari 180 taga, yo‘nalishlar 230 taga, mahalliy va xalqaro aviataqatnovlar soni esa yiliga 200 mingga yetkaziladi. Aeroport infratuzilmasini xususiy sheriklik asosida rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar izchil davom ettiriladi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON – SAUDIYA ARABISTONI: KO‘P QIRRALI MUNOSABATLAR YUKSAK DARAJAGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-oktabr kuni Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari rahbarlaridan iborat nufuzli delegatsiya boshchiligidamamlakatimizga tashrif buyurgan Saudiya Arabistoni Podshohligi investitsiyalar vaziri Xolid al-Falihni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Saudiya ko‘p qirrali hamkorligi va keng ko‘lamli sheriklikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Samarali hamkorlik jadal rivojlanib

borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Barcha darajadagi aloqalar faollashdi. O‘zaro savdo hajmi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va qo‘shma korxonalar soni ortib bormoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi aviataqatnovlar ko‘paydi.

Qo‘shma loyihalar portfeli 27 milliard dollarga yetdi. “ACWA Power” kompaniyasi bilan energetika sohasida 15 milliard dollarlik qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kuni kecha Toshkent shahrida o‘tgan Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar

kengashining navbatdagi yig‘ilishlarining samarali natijalari, ular doirasida yangi bitim va shartnomalar imzolangani yuksak baholandi.

“Yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, ko‘chmas mulk, mamlakatimiz hududlarida infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi loyiha hamda tashabbuslarni tez fursatda amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘ZA

Muhammad ABUNAYYAN: “O‘Z XALQINI SIZ KABI SEVADIGAN DAVLAT RAHBARINI UCHRATMADIM”



Xabar qilinganidek, kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida

Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport qurilishiga tamal toshi qo‘yishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. Unda Saudiya Arabistonidan tashrif buyurgan yirik investor — “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan ham so‘zga chiqib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida o‘z fikrlarini bildirdi. Quyida uning nutqi e’lon qilinmoqda.

Men dunyoning 24 ta davlati rahbarlari bilan muloqotda bo‘ldim. Lekin o‘z xalqini Siz kabi chin dildan sevadigan davlat rahbarini uchratmadim. Shuning uchun ham el-yurtinigiz Sizni yaxshi ko‘rib, boshiga ko‘tarmoqda.

Men Siz bilan yigirma marta uchrashish baxtiga muvassar bo‘lganman. Har bir uchrashuvdan oldin nutq tayyorlab, nimalarni aytish kerakligini obdan o‘ylab olaman. Ammo har gal Sizingning fikringiz, azm-u shijoatingiz va amaliy ishlaringiz biznikidan ustun keladi. Siz doimo jadal harakat qilasiz, sidqidildan ishlaysiz va albatta natijaga erishasiz.

Siz mahalliy va xorijiy investorlarga katta e’tibor qaratdingiz. Ular uchun teng imkoniyatlar yaratib berdingiz. Siz O‘zbekistonni har bir kompaniya va davlat uchun eng yaxshi investitsiya makoniga aylantirdingiz.

Siz boshqaruv va shaffoflik asosida o‘tmishdan qolgan og‘ir merosni ortda qoldirdingiz va yangi tarix yaratdingiz.

Men 15 ta mamlakatda investitsiya loyihasini amalga oshirganman va 30 dan ziyod davlatda bo‘lganman. Qayerga borsam ham “Yangi O‘zbekiston” haqida eshitaman. Bu Yangi O‘zbekiston — Sizingning el-yurtinigizga sadoqatingiz va tinimsiz mehnatingiz mahsul.

Butun dunyo bugun Sizni kuzatmoqda, Sizdan o‘rganmoqda. Sizingning rahnamolingizda ishonchli hukumat va fidoyi jamoa kechayu kunduz mehnat qilmoqda. Men haftasiga yetti kun, kuniga 18-20 soat ishlaydigan hukumatni faqat O‘zbekistonda va Saudiyada ko‘rdim. Shuning uchun ham xalqingiz Sizni sevmogda,

investorlaringiz va ko‘plab davlatlar Sizni hurmat qilmoqda. Dunyodan ko‘p odamlar O‘zbekistonga turist sifatida ham, do‘st sifatida ham, investor sifatida ham kelishni xohlaydi. O‘zbekistonning buyuk tarixi bor. Ayni vaqtda Sizingning bugungi yutuqlaringiz ham muhim tarixiy ahamiyatga ega. Eng asosiysi, Siz hech qachon erishgan marrangizda to‘xtab qolmaydiz. Bugungi uchrashuvda ham Siz 30 milliard dollarlik loyihalar yakuniga yetkazilgani, keyingi yillarda esa yangi yo‘nalishlar bo‘yicha yana ish olib borilishini aytdingiz.

Prezident Janobi Oliyarlari, Sizing asosiy maqsadingiz — xalqning hayot sifatini yaxshilash. Siz yoshlarga katta ishonch bilan qaraysiz. Yangi O‘zbekistonning kuch-qudrati va kelajagi — aynan ana shunday iqtidorli yoshlardir.

Sakkiz yilda Yangi O‘zbekiston uchun mustahkam poydevor qo‘yildi. Inshoalloh, keyingi yillarda O‘zbekiston o‘z salohiyatini butun dunyoga yanada yaqqol namoyon etadi. Yangi O‘zbekiston nimalarga qodir ekanini jahon albatta ko‘radi.

Prezident Janobi Oliyarlari, bizga ko‘rsatgan ishonchingiz uchun rahmat. Katta-katta ishlarga yetakchilik qilib kelayotganingizdan cheksiz minnatdormiz.

Mening ikki ustozim bor: biri — valiahd shahzoda, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Hazrati Oliyarlari, ikkinchisi — Siz, Prezident Janobi Oliyarlari. Men Sizdan juda ko‘p narsani o‘rgandim. Siz — mening ustozimsiz.

Yana bir bor katta rahmat Sizga!

SAUDIYA ARABISTONI ISHBILARMONLARI BILAN SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Tadbirida Podshohlikning investitsiyalar vaziri Xolid al-Falih, “ACWA Power”, “Al Muhaidib Group”, “Vision Invest”, “Data Volt”, “Riyadh Cables”, “AlMajdiah”, “InterHealth”, “Saudi Tabreed”, “AlBawani Holding”, “Miahona”, “Pemco” va boshqa yetakchi kompaniya hamda korporatsiyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida Prezidentimiz ikki davlat rahbarlarining birgalikdagi sa‘y-harakatlari tufayli keyingi yillarda

O‘zbekiston — Saudiya ko‘p qirrali sheriklik munosabatlari yuksak darajaga ko‘tarilganini alohida ta’kidladi.

Joriy yil boshidan buyon yurtimizda Saudiyaning 2 milliard dollarlik investitsiyalari o‘zlashtirildi. O‘zaro savdo hajmi barqaror oshib bormoqda. Aviataqatnovlar soni haftasiga 60 martadan ortdi.

Bugun ikki mamlakat o‘rtasidagi samarali va uzoq muddatli sheriklikning

yana bir yorqin dalili bo‘lgan tarixiy loyiha — yangi Toshkent xalqaro aeroportining qurilishiga tamal toshi qo‘yilishi alohida ta’kidlandi.

O‘zbekistonning iqtisodiy transformatsiyasiga, uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shayotgan saudiyalik hamkorlarimizni biz doim yuksak qadrlaymiz, — dedi Prezident.

Davomi 2-betda



2025-yil 16-oktabr, 212-son

QORAQALPOG'ISTONDAGI SALOMATLIK MARAFONI insonlar qalbiga umid va hayotsevarlikni qaytardi



Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Orolbo'yi aholisi hayotida yana bir yangi sahifa ochildi. Bunday deyishimizga to'la asos bor. Shu yurt farzandi, jurnalist sifatida mazkur jarayonni sinchkovlik bilan kuzatib boryapmiz. Marafon doirasida salomatligini tiklayotganlar bilan suhbatlashyapmiz. Yurtdoshlarimiz so'zlariga quloq tutib, beixtiroy keyingi yillardagi islohotlar ko'z oldimizdan birma-bir o'tadi. Axir yaqin yillargacha murakkab jarrohliklar bepul va yuqori malaka bilan bajarilishini tasavvur ham qila olmasdik.

Ortga qaytmas tus olgan islohotlar aynan Qoraqalpog'istondan boshlangan edi. Orolning qurigan tubidagi yashillik kosmosdan ko'ringani fikrimizning yaqqol isbotidir. Xuddi shu yashillikka uyg'un holatda eng chekka ovul va qishloqlarda ham hayot tarzi tubdan o'zgardi. Buning uchun barcha jabhada yangilanishlar amalga oshirildi. Orolbo'yi uchun alohida imtiyozlar berildi. Natijada ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy komplekslar, umuman, barcha jabhaga yangi hayot nafasi kirib keldi.

Bugun Qoraqalpog'iston havosidagi chang deyarli yo'qoldi. Insonlar qalbiga toza havo bilan birga ishonch va hayotsevarlik ham qaytdi. Bir vaqtlar yoshlar katta shaharlarga ko'chib ketishi avj olgan ovullar ham eng gavjum maskanga aylandi. Sayyohlik rivojlandi. Mamlakatimizning yirik iqtisodiy quvvatlari aynan Orolbo'yida qad rostlamog'da.

Prezidentimiz o'tgan yili tadbirkorlar bilan muloqotni Qoraqalpog'istonda o'tkazdi. Bu ham bejiz emas. Shu orqali iqtisodiy islohotlar Orolbo'yidan boshlanib, butun yurtimiz uzra qanot yozishiga ishora bor edi, nazarimda. Ana shunday katta o'zgarishlar qatorida salomatlik marafoni o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi.

Oldimizga qo'yilgan katta marrani zabt etishda inson kapitali hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, ijtimoiy davlat maqomini olgan yangi O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Salomatlik marafoni ana shu targ'ibotning o'ziga xos yangi qiyofasi bo'lib hayotimizga kirib keldi.

Marafon doirasida Nukus shahridagi 12 ta oilaviy poliklinika va 3 ta jamoat maskanida aholi diagnostikadan o'tkazilmoqda. E'tiborlisi, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Natijada yanada tezkor va aniq tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Bunday texnologik yechimlar bemorlarni yo'naltirish va raqamli tizimni joriy etishda qo'l kelyapti.

Shuningdek, marafon davomida Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti klinikasida skringning tekshiruvlari va profilaktik ko'riklar

o'tkaziladigan tibbiyot muassasalariga mobil mammograf, flyuorograf, angiograf, UTT apparatlari va oftalmologik jamlanmalar o'rnatildi. Klinik va biokimyoviy laborator tekshiruvlar uchun barcha zarur jihozlar tayyorlandi. Sarflov materiallari zaxira qilindi. Ha, marafonga jiddiy hozirlik ko'rildi. Natija ham shunga yarasha bo'lmoqda. Shifokorlarning hamkorlikdagi sa'y-harakati tufayli umid bilan kelgan yurtdoshlarimiz uyiga quvonib qaytapti. Buni ko'rsatilgan xizmatlarga doir raqamlarda ham ko'rish mumkin. Xususan, joriy yil 14-oktabrgacha 80 mingdan ziyod fuqaro ko'rikdan o'tkazilgan. Ulardan 4080 nafari ambulator, 247 nafari esa statsionar davolanishga yo'naltirilgan.

Shu o'rinda bir mulohaza. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog'liq ekan. Global muammo bo'lgan Orolning qurishi yillar davomida yurtdoshlarimiz salomatligiga salbiy ta'sir o'tkazib keldi. Aynan shu muammo Orolbo'yi aholisining turmush tarzida salbiy oqibatlarini ko'rsatdi. Ekologik muammo, yozda chang, qishda loy ko'chalar, ishsizlik, tan olinmagan kambag'allik, ijtimoiy xizmat ko'rsatishdagi yo'qotishlar... bularning barchasi turmush tarzimizdagi salbiy oqibatlarga olib keldi. Boz ustiga sog'liqni saqlash tizimi ham ko'ngildagidek ishlamasdi. Tabiiyki, bunday vaziyatda aholi sog'lig'ida muammolar ko'p bo'ladi.

Keyingi yillardagi o'zgarishlar sabab aholining turmush tarzi tubdan o'zgardi. Endi yurtdoshlarimiz katta orzular, ertangi kunga ishonch bilan yashayapti. Bolalarini



ko'proq ta'limga yo'naltirib, yurtimizda inson kapitalini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda. Ana shunday o'sish va o'zgarishlar davrida aholining salomatligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birgina shu faktning o'ziyoq marafonning ahamiyatini teran anglashga yetarli, nazarimizda.

Yana bir muhim fakt. Marafon doirasida shifokorlar og'ir jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli bajaryapti. Xususan, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti klinikasida shu kungacha jami 41 bemorda jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Masalan, Nukus shahridagi ko'zi ojizlar maktab-internatining 11-sinf o'quvchisi Davlatyor Qoshanovda neyroxirurgik jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi zarur. Buning uchun esa kamida 30 million so'mni cho'ntakka solib, Toshkentga borishi kerak edi. Bemorning baxtiga Bolalar milliy tibbiyot markazining yetuk rahbarlari mas'uliyatni zimmasiga oldi. Jarrohlik amaliyotini bepul o'tkazib berdi.

— Bolamning sog'lom hayotga qaytayotganini ko'rish juda katta baxt, — deydi Davlatyorning onasi Sirg'a Ismoilova. — Bu faqat shifokorlarning mehnati emas, balki davlatimiz rahbarining xalq salomatligiga yuksak e'tibori va Orolbo'yi aholisiga g'amxo'rligining yorqin namunasidir.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar samarasi xalqni rozi qilish yo'lidagi yangilanishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.



Axir murakkab jarrohlik amaliyotini zimmasiga olishi uchun mutaxassisda nafaqat bilim, balki mahoratiga ishonch ham bo'lishi kerak. Yaratilgan imkoniyatlar ana shunday ishonch bermoqda.

— Prezidentimiz tibbiyot sohasi uchun yetarli sharoitni ta'minlab bermoqda, — deydi Bolalar milliy tibbiyot markazi bo'lim boshlig'i, neyroxirurg Olim Akramov. — Shifokor ko'ngildagidek faoliyat yuritishi uchun jahon standartlariga javob beradigan

axir murakkab jarrohlik amaliyotini zimmasiga olishi uchun mutaxassisda nafaqat bilim, balki mahoratiga ishonch ham bo'lishi kerak. Yaratilgan imkoniyatlar ana shunday ishonch bermoqda.

Marafon ana shu jarayonni yanada tezlashtirdi. Ezgu tadbirda 800 dan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, oilaviy shifokor va patronaj hamshiralari, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va filiallarining yetakchi mutaxassislari hamda xorijlik shifokorlar ishtirok etmoqda.

yuqori texnologiyalar va malaka kerak. Bizda hozir ikkalasi ham bor. Nukus shahridagi klinikada ham xuddi shunday sharoit yaratilgan. Operatsiyalarni mahalliy mutaxassislar bilan birga bajarib kelyapmiz.

Ekologik muammoning Orolbo'yi aholisi turmush tarzi va sog'lig'iga salbiy ta'siri singari yillar davomida yig'ilib kelgan masalalarni bir yoki ikki kunda hal qilib bo'lmaydi. Shu bois, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti huzuridagi innovatsion klinika nafaqat tibbiy xizmat ko'rsatish, balki aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi aholisi salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

— Klinikamiz tibbiy-dagnostika, ta'lim, ilmiy-innovatsion va xo'jalik korpuslaridan iborat yaxlit majmuadir. Uning tarkibida poliklinika, qabul bo'limi, jarrohlik bo'limi, anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar gepatologiyasi va gematologiyasi, bosh va bo'yin xirurgiyasi, minimal invaziv xirurgiya, travmatologik ortopediya, reproduktiv patologiya bo'limlari faoliyat yuritadi, — deydi Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti klinikasi bosh shifokori o'rinbosari Sarvinaz Turmanova. — Maqsadimiz aholining sog'lig'ini mustahkamlash va tibbiy xizmat sifatini zamon talabiga mos ravishda oshirishdir. Bu yo'lda klinikamizning moddiy-texnik bazasi yil sayin mustahkamlanmoqda. Xalqaro grant loyihalari doirasida Yaponiya

xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan hamkorlikda 7,3 million dollarlik zamonaviy tibbiyot laboratoriyasi va ilg'or simulyatsiya markazi tashkil etildi. Bu markaz nafaqat shifokorlar malakasini oshirish, balki talabalarni amaliyotga yaqin sharoitda o'qitish imkonini beradi.

“Kasallikning eng yaqin ittifoqchisi bemorning umidsizligidir”, degan edi donishmandlardan biri. To'g'risi, yaqin yillargacha Orolbo'yi aholisi sog'lig'i haqida gapirishni unchalik istamasdi. Bunga ham o'ziga xos bir necha sabablar bor edi. Avvalo, iqtisodiy masala. Qolaversa, shifokorlar malakasiga nisbatan ishonchsizlik kuchli edi. Bu ham bejiz emas. Chunki uzoq yillar soha isloh qilinmadi. Hatto shifokor va hamshiralarga paxta terimida tekis ishchi kuchi sifatida qarab kelindi. Soha davrga monand taraqqiy etmagani uchun bemorlar imkon qadar markaziy shifoxonalarda davolanishni istardi. Bugun esa olis hududlardagi klinikalarga ham zamonaviy texnologiya kirib bordi. Endi yurtdoshlarimiz orasida o'z mahallasi, tumanidan olisga ketmay davolanish ommalashib boryapti.

Marafon ana shu jarayonni yanada tezlashtirdi. Ezgu tadbirda 800 dan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, oilaviy shifokor va patronaj hamshiralari, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va filiallarining yetakchi mutaxassislari hamda xorijlik shifokorlar ishtirok etmoqda.



Ular amaliy ishlari va maslahati bilan qoraqalpog'istonliklarga umid, ishonch beryapti. Muhimi, xalqimiz orasida tibbiy madaniyatni yuksaltirishga hissa qo'shmoqda.

— Salomatlik marafonida aholini profilaktik ko'rik va skringning tekshiruvlariga jalb etyapmiz. Fuqarolarning o'z salomatligiga e'tiborli bo'lishi, kasalliklar profilaktikasiga doir tushunchalari boyishiga imkon qadar hissa qo'shyapmiz, — deydi

Nukus shahridagi 8-oilaviy poliklinika bosh shifokori o'rinbosari Zulfiya Ismoilova. — Tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra, aholi uch guruhga toifalanmoqda. Amaliy sog'lom deb topilganlarga faqat sog'lom turmush tarzi asoslari bo'yicha tavsiyalar berilmoqda. Xavf guruhiga mansub aholi uchun individual reja asosida zararli odatlardan xalos bo'lish va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha maslahat beryapmiz. Kasalligi aniqlanganlar ambulator va statsionar (kunduzgi statsionar, shahar va respublika shifoxonalarda) davolanishga yo'naltirilmoqda.

Kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan ushbu aksiya orqali hududda yashovchi aholi 31-oktyabrgacha qadar skringning hamda profilaktik ko'riklarga qamrab olinadi. O'z navbatida, tekshiruv natijalari yagona elektron baza — DMED axborot tizimiga kiritiladi. Bu kelgusida bemorlarning salomatligini muntazam monitoring qilib borishda muhim ahamiyatga ega. Sodda qilib aytganda, marafon tufayli odamlar salomatligi xatlovdan o'tkazilmoqda. Maqsad aholining kasallik bilan murojaat qilishini kutib o'tirmay, oldindan tibbiy xizmat ko'rsatishdir.

Sog'liqni saqlashning eng oddiy va oson yo'li — sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilish. Chunki to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va semirish xavfini kamaytiradi. Marafon sog'lom turmush

Tadbir FAOning “Maktab ovqatlanirish dasturini sinovdan o'tkazish orqali oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni yaxshilashni qo'llab-quvvatlash” loyihasi doirasida amalga oshirildi. Bugun bolalarga to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarzining ahamiyati o'rgatilsa, ertaga hozirgidek katta tadbirlar qilib, salomatlikni targ'ib etishga zarurat qolmaydi. Shu bois, FAOning xavfsiz va sog'lom ovqatlanish masalalari bo'yicha milliy maslahatchilari 3-4-sinf o'quvchilari uchun interfaol darslar o'tdi. O'quvchilar o'yin shaklida makro va mikro ozuqalar nima ekanini, nima uchun mavsumiy mahsulotlarni iste'mol qilish muhimligini bildi. Shuningdek, ovqatlanishning inson salomatligi va ekologiyaga ta'siri haqida tushuncha berildi.

Trening doirasida o'quvchilar qisqa videoroliklarni tomosha qildi. Viktorinalarda qatnashib, esdalik sovg'alarni oldi. Shu orqali ular qalbiga “Sog'lom ovqatlanish — bu kuch-quvvat va o'zimizga hamma sayyoramizga g'amxo'rlik!” degan eslatmani singdirishga harakat qilindi.

Raqamli asrda yashayapmiz. Bunday texnik imkoniyat insoniyatga barcha sohada qulayliklar yaratmoqda. Masalan, murakkab jarrohlik amaliyoti nanotexnologiyalar yordamida muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Nukus shahrida o'tkazilgan “HealthTech AI Hackathon” tanlovi yangi O'zbekiston yoshlari avvalgi uyg'unish davriga asos solgan ajdodlarga munosib avlod ekanini ko'rsatdi. Tanlovda tibbiyot sohasidagi ilg'or axborot texnologiyalari dasturlari taqdim etildi. Unda 36 ta jamoa, 300 dan ortiq ishtirokchi yuzlab yangi tashabbusni ilgari surdi. Ular orasidan eng yaxshilari saralab olinib, mukofotlandi. Muhimi, tanlov yosh shifokorlar va texnologiya sohasi mutaxassislari kelajak tibbiyoti uchun yechim izlab, yagona maqsad yo'lida birlashganini ko'rsatdi.

Sog'liqni saqlash tizimi inson hayoti bilan bevosita bog'liq. Shu bois, unda ilm va malakaning o'zi yetarli emas. Buning uchun sohaga daxldor har bir shaxsda insoniy mehr, ezigulik sog'inchi bo'lishi kerak. Ana shu mehr tanlovda qatnashgan yoshlarning ko'zida porlab turardi. Chunki ularni shu sohaga yetaklab kelgan sabablar bor. Ya'ni ko'pchilik “Hackathon”ga mukofot ilinjida emas, balki yaqinlarining og'rig'ini his etib, ular kabi insonlarga ko'mak berish istagida kelgan. Bu mehr daryosi, ezigulik sog'inchingin ilm-fan bilan uyg'unlashuvdir. Shu bois, ular taqdim etgan ishlarning natijasi samarali va manfaatli bo'ldi. Mas'ullar buni teran his etgani holda bunday loyihalarni yanada rivojlantirishga ko'maklashib, investoirlarni jalb etishga kelishib oldi.

— Tadbirning dastlabki kunida ishtirok etgan 36 guruhdan 30 tasi tanlab olindi, — deydi Raqamli texnologiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi Atabek Seyitbayev. — Ekspertlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan loyihalar amaliyotda qo'llanadi. Ishlanmalarni baholashda tibbiyotda qanchalik samara berishi, ishlatishga qulayligi kabi jihatlarni hisobga olindi. Muhimi, taqdim etilgan juda ko'p ishlanmalarni mutaxassislar yuqori baholadi. Tibbiyotni raqamlashtirish orqali kasalliklarni erta aniqlash, surunkali kasalliklarni prognoz qilish mumkin. Sohadagi yutuqlar sabab hatto inson salomatligini real vaqtda kuzatish imkoniyati yaratiladi. Yana bir e'tiborli jihati ushbu tanlovda ishtirokchilarning 40 foizi o'z g'oyalarni dadil himoya qilayotgan, noyob mahsulotlar yaratayotgan va murakkab texnologiyalarda oson yo'nalish olayotgan qizlardan iborat.

Albatta, eng yaxshi g'oyalarni grantlar, akseleratsiya va inkubatsiya dasturlari orqali qo'llab-quvvatlanadi. Shuningdek, g'oliblar venchur fondlaridan investitsiya jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muhimi, loyiha davom etadi. 2026-yil yakuniga qadar unda minglab yosh mutaxassis qatnashadi. Bo'lajak novatorlar, olimlar va yetakchilarni jamlaydigan ushbu tanlovning keyingi bosqichi Samarqandda o'tkaziladi. Ha, bu safar ham xalqimiz hayotida tub o'zgarish yasaydigan islohotlardan biri Qoraqalpog'istonda boshlanib, yurtimiz bo'yab keng quloq yozadigan bo'ldi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda jamoat transportidan foydalanuvchilar soni ikki barobar oshdi. Avvallari deyarli talabga javob bermaydigan ushbu yo‘nalish tubdan isloh qilinib, sifatli taklif shakllantirilgach, aholi orasida jamoat transportiga ishonch ortib, manzilga tez va qulay yetib olish vositasi sifatida qaralmoqda. Hatto tirbandliklar tobora ortib borayotgan shahar ko‘chalarida yengil avtomashinada harakatlanishdan ko‘ra, jamoat transportini afzal ko‘rayotganlar soni ham ko‘p.

Ko‘lamni yanada oshirish maqsadida keyingi yillarda mamlakatimiz ko‘chalarida jamoat transportiga ustunlik berish choralari ko‘rilmoqda. Avvalo, eski rusumdagi avtobuslar o‘rmini xorijdan olib kelinayotgan zamonaviy transportlar, xususan, elektrobustlar egalladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, birgina Toshkent shahrida so‘nggi ikki yilda avtobuslar soni ikki barobar, o‘rtacha sig‘imi esa 74 foiz oshgan. Harakatning oraliq intervali ham bir necha marta qisqardi, oldingidek soatlab kutishga to‘g‘ri kelmaydi. Avtobuslarning ichki qismi esa barcha qulaylikka ega: havo sovitsiz va isitish uskunalaridan tortib elektron to‘lov tizimlarigacha muntazam ishlamoqda.

Ammo aholining jamoat transportidan foydalanishini rag‘batlantiradigan yana bir muhim jihat bor bu — manzilga tez va xavfsiz yetib olish maqsadi. Ushbu masala soha vakillari oldidagi asosiy vazifaga aylangani, bu borada huddagi asoslar yaratilib, aniq chora-tadbirlar ko‘rilayotgani boisi shunda. Yo‘llarning yon qismida alohida avtobus yo‘laklarini tashkil etish orqali tezkor avtobus yo‘nalishlari tizimi joriy etilayotgani ana shu vazifalarning bir qismi.

Toshkent shahrida ilk bor alohida avtobus yo‘lagi 2023-yil boshida Yunusobod tumani Amir Temur shohko‘chasida ochilgani va “A” belgisi bilan ajratilgani ko‘pchilikning yodida. Asta-sekin bunday yo‘laklar poytaxtimizning boshqa ko‘chalarida ham paydo bo‘la boshladi. Ushbu alohida yo‘laklarning afzalligi — ko‘chaning o‘ng tomonida faqat avtobuslar yurishi mumkin va unda yengil avtomobillar harakatlanishi taqiqlanadi. Bu orqali jamoat transportning tirbandliklarga qolmay, aholini manzilga tez va sifatli yetkazishi ko‘za tutilgan.

O‘tgan qisqa muddatda bu amaliyot o‘zini oqladi. Haqiqatan, alohida ajratilgan avtobus yo‘laklari jamoat transportining harakatlanish tezligini bir necha barobar oshirdi. Tirbandliklardan xoli yo‘laklar avtobuslarning manzilga yetib borish vaqtini ham ancha qisqartirdi. Shu bois, ular harakati uchun alohida joy ajratilganini keng jamoatchilik ijobiy kutib olib, qo‘llab-quvvatlayapti.

Harakat tezligi ortdi

Yurtdoshlarimiz joriy yilning 7-oktabr kuni Toshkent shahridagi Shota Rustaveli ko‘chasi bo‘ylab foydalanishga topshirilgan yana bir alohida avtobus yo‘lagini xuddi shunday mamnunlik bilan qarshi oldi. Ijtimoiy tarmoqlarda ham ko‘pchilik ana shu yo‘lak haqida gapirdi, alohida qiziqish bildirdi. Yo‘lakning e‘tiborni tortadigan jihati esa odatdagi avtobus yo‘llaridan farqli tarzda yo‘lning yon qismi emas, balki o‘rta — markaziy qismi bo‘ylab o‘tganida.

Shu tariqa O‘zbekistonda ilk bor avtobuslar yo‘lning o‘rta qismidan harakatlan boshladi. Bu amaliyot birinchi bo‘lib poytaxtimizdagi Shota Rustaveli ko‘chasida yo‘lga qo‘yildi. Mutasaddilarning ta‘kidlashicha, birinchi



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlari.

bosqichda ushbu yo‘lak orqali 38-, 57- va 58-yo‘nalishdagi avtobuslar harakatlanmoqda. Yaqin vaqtlarda ko‘cha bo‘ylab o‘tadigan 22 ta yo‘nalishdagi transportlarning barchasi markaziy avtobus yo‘lagi orqali yura boshlaydi. — Shota Rustaveli ko‘chasining umumiy uzunligi 7 kilometr bo‘lib, shundan 5 kilometri bo‘ylab yo‘lning o‘rtasida jamoat transporti harakatlanishi uchun alohida yashil yo‘lak tashkil qilindi, — deydi Toshkent shahri transport boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Olloyor Norbo‘tayev. — Markaziy avtobus yo‘lagi poytaxt transport tizimini zamonaviylashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib, mamlakatimiz amaliyotida yangilikdir. Buning uchun nega aynan Shota Rustaveli ko‘chasi tanlangani ko‘pchilikni qiziqiryapti. Gap shundaki, bu ko‘cha bo‘ylab nisbatan ko‘p yo‘nalishdagi jamoat transporti harakatlanadi. Qolaversa, avvaldan piyodalar harakatlanish yo‘laklari, avtomobillar to‘xtash joylariga talab katta bo‘lgan. Shu bois, loyiha doirasida mazkur ko‘cha tanlab olinib, birinchi bosqichda rekonstruksiya ishlari bajarildi. Hozir avtobus bekatlarini o‘rnatish va tozalash ishlari oxirgi bosqichda. Ishlar yakuniga yetgach, ko‘cha bo‘ylab o‘tadigan barcha yo‘nalishdagi jamoat transportlari yangi markaziy avtobus yo‘lagida harakatlan boshlaydi va bu haqda yo‘lovchilar xabardor qilib boriladi. E‘tiborli jihati, yangi yo‘lak foydalanishga topshirilishi natijasida ushbu ko‘cha bo‘ylab avtobuslarning harakatlanish tezligi o‘rtacha 11 foiz oshishi, harakatlanish vaqti esa 7 daqiqaga qisqarishi hisoblab chiqilgan. 22 yo‘nalishdagi avtobuslarning barchasi o‘rta yo‘lakdan

harakatlan boshlagach, kuniga 200 mingga yaqin yo‘lovchi tashilishi kutilmoqda. Bu avvalgiga nisbatan 30-40 mingga ko‘p degani.

Hozir harakatlanayotgan uch yo‘nalishdagi avtobuslardan allaqachon odamlar foydalana boshladi. Bir necha yurtdoshimiz bilan suhbatlashganimizda, avtobuslarning o‘rta yo‘lakdan harakatlanishi qulay ekani, boshqa transport vositalari xalal bermasligi, o‘rta yo‘lakka o‘tish ham unchalik qiyinchilik tug‘dirmagani haqida gapirdi.

— Bu yo‘lak haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabar topdim va bugun o‘zim ham birinchi marta foydalanyapman, — deydi yo‘lovchilardan biri. — Bekatga o‘tishga qiynalmadim, chunki yer osti yo‘li barpo etilibdi. Yer ustida ham piyodalar o‘tish yo‘lagi bor. Nazarimda, bu yo‘lovchilarga qulaylik yaratadi. Avtobus yo‘lagining o‘rtada joylashgani ham qulay. Boisi, yo‘lak cheti to‘silgani hisobiga avtobuslarning harakatiga boshqa transport vositalari xalal bermaydi. O‘rtiqcha tirbandliksiz manzilga tez yetib olish mumkin. Ayniqsa, men kabi talabalarga bu ayni muddao. Xuddi metro liniyasi kabi avtobuslar uchun ham alohida yo‘lakning bo‘lishi jamoat transportidan foydalanish qulayligini oshiradi.

Loyihadan ko‘zlangan maqsad ham shu — shahar ko‘chalarida jamoat transportiga ustuvorlik berish orqali tirbandliklarni kamaytirish, yo‘lovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan. Avtobuslar yo‘lagining o‘rtada joylashgani esa samaradorlikni yanada oshiradi. Bunday amaliyot xorij tajribasida ham ommalashgan, ko‘pgina davlatlarda avtobuslar asosan yo‘lning

o‘rta qismida harakatlanadi. Mutaxassislarning aytishicha, avtobus yo‘laklarining o‘rtada joylashishi o‘tkazuvchanlik imkoniyatini oshirib, tirbandliklarsiz harakatlanishiga xizmat qiladi.

Eng oqilona yechim

Shota Rustaveli ko‘chasida foydalanishga topshirilgan avtobus yo‘lagi mamlakatimiz amaliyotida yangilik bo‘lishiga qaramay, ko‘pchilik buni kutgani sir emas. Shu bois, yurtdoshlarimizning aksari yangilikni ijobiy qabul qildi. Bu, bir jihatdan, shahrimiz ko‘chalarida jamoat transportidan foydalanish ko‘rsatkichi oshib borayotgani, boshqa jihatdan, yengil avtomobillar ko‘payishi hisobiga ortayotgan tirbandliklar odamlarni toliqtirayotgani bilan bog‘liq. Birgina misol: oldinlari tig‘iz vaqtlar odatda ertalab va kechqurunga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozir kunning istalgan paytida, shaharning istalgan hududida tirbandliklarda qolib ketish mumkin. Ma‘lumotlarga ko‘ra, poytaxtda avtotransport vositalari doimiy harakatlanadigan asosiy yo‘l tarmoqlari uzunligi 470 kilometr bo‘lgani holda 380-400 ming avtotransport harakatiga mo‘ljallangan. Ammo odatda bu raqam 1 millionga yetib, avtotransportlar harakati bir vaqtning o‘zida harakatlanish sig‘imidan 2 barobar oshib ketyapti. Bu asosiy ko‘chalarga 2 marta ko‘p yuklama tushyapti degani. Yo‘llarda turnaqator tirbandliklar yuzaga kelishi ham shu bilan bog‘liq.

Bunday sharoitda odamlar yo‘llarda jamoat transportiga ustunlik berilishi va ular uchun ajratilayotgan “A” belgisi yo‘laklarni yanada kengaytirish tarafdori. Asosiysi, ularda yengil avtomobillar harakatlanishini taqiqlashni qat‘iy nazoratga olish lozim. Boisi, “A” belgisi yo‘llarda harakatlanish odatdagedek davom etib, istalgan mashina erkin foydalansa, u holda alohida yo‘llarni belgilab, maxsus belgilarni chizib chiqish o‘rtiqcha ovoragarchilikdan boshqa narsa bo‘lmaydi. Chunki jamoat transporti yana avvalgidek tirbandlikda qoladi va uning alohida yo‘lda harakatlanishida hech qanday ma‘no yo‘q.

Avtobus yo‘laklari yo‘lning o‘rta qismi bo‘ylab o‘tishi esa masala yechimini ancha osonlashtiradi. Shota Rustaveli ko‘chasining markaziy qismidagi yashil yo‘lak ham faqat avtobuslar uchun mo‘ljallangan. To‘g‘ri, unda maxsus transport vositalari, xususan, “Tez

yordam”, o‘t o‘chirish mashinalari harakatiga ruxsat beriladi. Ammo boshqa transport vositalarining harakatlanishi, to‘xtashi yoki yo‘lni kesib o‘tishi qat‘iy taqiqlanadi. Mazkur yo‘lda yengil avtomobil yoki skuterlar harakatlanasa, kameralar qoidabuzarlikni qayd etadi va tegishli miqdorda jarima yoziladi.

Bu piyodalar xavfsizligi uchun ham muhim. Ana shu xavfsizlikni yanada oshirish maqsadida yo‘lning o‘rta qismida joylashgan avtobus bekatlariga o‘tish bo‘yicha ham yo‘lovchilar uchun muayyan tartiblar o‘rnatilgan. Jumladan, avtobus bekatiga borish uchun yo‘lovchilar yo‘lni faqat belgilangan piyodalar o‘tish joyi orqali kesib o‘tishi mumkin. Buning uchun har bir bekatda maxsus piyodalar o‘tish joylari tashkil etilgan. Ayrim bekatlar oldida ham yer osti, ham yer usti piyodalar o‘tish joyi mavjud. Avtobusga esa yo‘l o‘rtasida joylashgan maxsus platformalar orqali chiqib tushiladi.



Bu platformaga faqat belgilangan piyodalar o‘tish joyi orqali chiqish kerak. Belgilanmagan joydan o‘tish esa qat‘iy man etiladi. Platformada harakatlanganda sariq xavfsizlik chizig‘i ortida turish, avtobus to‘liq to‘xtagandan so‘ng eshikka yaqinlashish tavsiya etiladi.

Piyodalar o‘tish yo‘lagi va bekat orasi juda yaqin, bu bolalarning ham xavfsiz o‘tishiga xizmat qiladi, — deydi bir onaxon. — Bekatlar orasidagi masofa ham uzoq emas. Bordi-yu, biz kabi keksalar adashib bir bekat oldinga o‘tib ketsa ham ortga piyoda qaytish qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Yo‘l chetidagi “A” yo‘laklari o‘z o‘rnida qoladi

Yangi yo‘lak borasida fikrlar xilma-xil. Yo‘lovchilarning ko‘piga bu amaliyot ma‘qul. Ammo yengil avtomobil haydovchilari avtobus uchun o‘rta qismdan alohida joy ajratilgani yo‘llarni toraytirib, tirbandliklarni yanada oshirishdan xavotirda.

— Aslida, tirbandliklarni kamaytirishning asosiy qoidalardan biri yo‘llarda jamoat transportiga ustuvorlik berish, ularning harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratishdir, — deydi Toshkent shahri transport boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Olloyor Norbo‘tayev. — Bu yengil avtomobillar harakati uchun ham qulaylik tug‘diradi. Shota Rustaveli ko‘chasidagi markaziy avtobus yo‘li misolida olsak, rekonstruksiyaning oldin yo‘lning ikki chetidagi bir yarim bo‘lakdan uch bo‘lagi avtomobillarning uzoq vaqt to‘xtab turishiga

xizmat qilardi. Faqat o‘rtadagi uchtadan oltita bo‘lakda avtomobillar harakatlangan. Hozir esa avtobuslar uchun alohida yo‘lakdan tashqari, uchta bo‘lakda avtomobillar harakatlanishi hamda bir bo‘lakda tartibli yo‘l bo‘yi to‘xtab turish joylari tashkil etildi. Ya‘ni avtobus yo‘lagi avtomobillarning harakatlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Ayni paytda Shota Rustaveli ko‘chasi bo‘ylab 5 kilometrli markaziy avtobus yo‘lagi, 500 ga yaqin avtomobil to‘xtab turish joyi, piyodalar va velosiped uchun 21 ta xavfsiz o‘tish joyi, ikki tomonlama 11 ta avtobus bekat o‘rnatilgan. Avtomobil to‘xtab turish joylarining har biri texnik talablar asosida belgilangan. Bu yo‘l harakati xavfsizligi buzilmasligi, piyodalarga xavf tug‘dirmasligiga xizmat qiladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahrida bitta yengil avtotransport vositasida bir kunda o‘rtacha 4,8 yo‘lovchi tashilsa, bitta avtobusda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 700-800 yo‘lovchini tashkil etmoqda. Bu avtobusing yengil avtotransportga nisbatan 145 barobar samarador ekanini ko‘rsatadi. Qolaversa, shaharda tirbandliklarning oldini olish, aholining kunlik harakatlanishiga ehtiyojini ta‘minlab, yo‘lga sarflanadigan vaqt va moddiy resurslar samaradorligini oshirish uchun ham sifatli, qulay, xavfsiz va jozibador jamoat transporti tizimini joriy etish lozim.

Shu jihatdan katta shaharlarda avtobuslar uchun alohida yo‘laklar tashkil etish zarur. Mutaxassislarning ma‘lumotiga ko‘ra, poytaxtimizda arterial hisoblangan 36 ta yo‘lak mavjud bo‘lib, Prezidentimizning tegishli qaroriga binoan ularning barchasida avtobuslar uchun umumiy 472 kilometrden iborat alohida yo‘laklar tashkil etish belgilangan. Bu shaharda jami 36 ta avtobus yo‘lagi bo‘ladi degani. Shota Rustaveli ko‘chasida foydalanishga topshirilgan markaziy avtobus yo‘lagi ana shu loyihaaning bir qismi. Odamlarni esa “Endi avtobus

yo‘laklarining hammasi yo‘lning o‘rta qismida joylashadimi? Avval yo‘lning chetida tashkil etilgan avtobus yo‘laklari ham o‘rta qismga o‘tkaziladimi?” kabi savollar qiziqitirmoqda.

— Avtobus yo‘laklari ko‘chaning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Shota Rustaveli ko‘chasi o‘rganilganda, yuqorida aytilganidek, qator omillar sabab jamoat transporti uchun yashil yo‘lak aynan yo‘lning o‘rta qismida bo‘lishi qulayligi aniqlandi, — deydi Olloyor Norbo‘tayev. — Boshqa ko‘chalarda yo‘lning chetiga qilingan avtobus yo‘laklari esa o‘z o‘rnida qoladi. Talabdan kelib chiqqan holda boshqa ko‘chalarda ham yo‘lning o‘rta qismida avtobus yo‘laklarini tashkil etish mumkin, lekin hozircha aniq ko‘cha belgilanmagan. O‘rganish jarayonlari bosqichma-bosqich olib boriladi.

Keyingi bosqichlarda yaxlit yo‘lak hisoblangan Yangi Sergeli, Shahrisabz va Amir Temur ko‘chalarida alohida avtobus yo‘laklari tashkil qilinadi. Bu yo‘laklar yo‘lning o‘rta yoki yon qismida bo‘lishi har bir ko‘chaning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, Yangi Sergeli ko‘chasining o‘rta qismida yashil hudud mavjudligi bois, unda avtobus yo‘lagini tashkil etish murakkab. Ko‘chaning ikki tomonida esa alohida avtomobil to‘xtash joylari bor va yo‘l bo‘yi to‘xtash joylariga talab kamroq. Shu bois, bu yerda avtobus yo‘lagini aynan yo‘lning yon qismiga joylashtirish qulayroq.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TADBIRKORNING MUVAFFAQIYAT FORMULASI

Oramizdagi odamlar

Farg‘onalik Shuhratjon Shamsiddinov tadbirkorlikni boshlaganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. O‘tgan yillar uning hayoti va ishlarida o‘ziga xos voqealarga boy bo‘ldi. Qahramonimiz Farg‘ona politexnika institutida tahsil oldi. Yoshligidan maqsadi sari intilishga odatlangan Shuhratjon xorijiy tillarni o‘rgandi. Albatta, bunga erishish yosh tadbirkor uchun oson bo‘lgani yo‘q. U o‘z maqsadi yo‘lida ko‘plab qiyinchiliklarga dosh berdi, ba‘zan yutdi, ba‘zan yutqazdi. Ammo maqsadidan qaytmadi, yurt taraqqiyoti, rivojiga baholi qudrat hissa qo‘shishga harakat qildi, izlandi, imkoniyat qidiradi.

Dastlab kompyuter xizmati ko‘rsatish va chakana savdo yo‘nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish maqsadida BAAdan to‘g‘ridan to‘g‘ri mahsulot xarid qilish tizimini yo‘lga qo‘ydi. Oddiy ishlardan boshlagan faoliyat turli yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini kengaytirish imkonini berdi. Tadbirkor “Yormozor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida 450 o‘rinli zamonaviy to‘yxona, umumiy ovqatlanish shoxobchasi faoliyatini yo‘lga qo‘yib, o‘nlab yangi ish o‘rinlari ochdi. Ishlari asta-sekin yurisha boshlagan yosh ishbilarmon “Fergana motors” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga asos soldi. Tarmoq bugun avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishga yetakchi o‘rinda turadi. Shuningdek, avtomobil va elektromobil savdosi ham yo‘lga qo‘yilgan. Qolaversa, ularga texnik xizmat ham ko‘rsatiladi. Korxona ishchilarining aksariyati mehnat migrantligidan qaytgan, ijtimoiy himoya reyestriga olingan oilalar farzandlari. Bu yerda “usta-shogird” an‘anasi asosida mahalla yoshlariga kasb-hunar o‘rgatilyapti.

— Ishga joylashganimga bir yildan oshdi, — deydi mexanik usta Akmal G‘ofurov. — Bir necha yil xorijda turli yumushlarni bajarib yurdim. Mahallamizda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatadigan tarmoq tashkil etilganidan xabar topib, ishlash uchun qaytib keldim. Hamma shart-sharoit bor. Maoshni o‘z vaqtida olamiz, rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Muhimi, oila a‘zolarim, yaqinlarim oldida, tinch, erkin-erkin ishlayapman.

Tadbirkor izlanish, intilishdan to‘xtamaydi. Yormozor mahallasi hududida ko‘p qavatli uylar qurilmoqda. Unga hamohang yangi infratuzilma tarmoqlari barpo etilayotgani odamlarning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilyapti.

— Tadbirkorlikka munosabat butkul o‘zgardi. Ochiqlik siyosati kirib keldi, o‘zaro muloqot maydoni shakllandi. Ishlayman deganga barcha sharoit, imkoniyat bor. Dastlab kichik ishlardan boshlangan faoliyatimiz katta loyihalarga yo‘l ochdi. Bugun o‘z mehnatimiz bilan erishganlarimizdan nafaqat moddiy manfaat, balki ma‘naviy rag‘bat ham olyapimiz. Chunki yurtimizda tadbirkorlarga alohida izzat-hurmat ko‘rsatilyapti. Xususan, Prezidentimizning joriy yil tadbirkorlar va ishbilarmonlar bilan muloqotidan nihoyatda ruhlandim, — deydi Shuhratjon Shamsiddinov. — Bunday qo‘llov natijasida ko‘plab yangi ishlab chiqarish



korxonalari qurildi. Sarmoyadorlar oqimi ko‘payib, investitsiyalar miqdori oshdi. Masalan, yillik aylanma mablag‘i 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlar kelgusi yil 1-yanvardan bir xil, ya‘ni mablag‘ aylanmasidan 1 foiz soliq


to‘lashga o‘tkaziladi. Aylanma summasi 100 million so‘mgacha bo‘lgan yakka tadbirkor yillik 12 million so‘mgacha qat‘iy soliq o‘rniga ko‘pi bilan 1 million so‘m to‘laydi. Yoki aylanmasi 100 milliondan 1 milliard so‘mgacha bo‘lganda

“YANGI O‘ZBEKISTONDA SHUHRATJON SHAMSIDDINOVDAY TADBIRKORLAR UCHUN IMKONIYATLAR ESHIGI OCHIQ. SHU BOIS, BUGUN QAHRAMONIMIZ KABI EL-YURT DUOSINI OLAYOTGAN ISHBILARMONLAR SAFI KENGAYIB, YANGI ISH O‘RINLARI KO‘PAYIB BORMOQDA.”

ilgari 30-40 million so‘m soliq to‘lanardi. Endi uning soliq yuki 3-4 hissa kamayadigan bo‘ldi. Yana bir masala: mehmonxona qurmoqchi bo‘lgan tadbirkorlar yer sotib olish uchun pul to‘lamaydi. Bular soha rivoji yo‘lidagi juda katta imkoniyatdir.

Ha, yangi O‘zbekistonda Shuhratjon Shamsiddinovday tadbirkorlar uchun imkoniyatlar eshigi ochiq. Shu bois, bugun qahramonimiz kabi el-yurt duosini olayotgan ishbilarmonlar safi kengayib, yangi ish o‘rinlari ko‘payib bormoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



II

Endi “nafsi lavvoma” iborasining mazmuniga kelsak. “Lavvoma” doim koyib turuvchi degan maʼnoni bildiradi va nafs jilovini oʻz qoʻliga olgan, nafsini aqliga boʻysundirgan va nafsni gʻolib kelganda oʻzini oʻzi koyib, yana uni magʻlub qila oladigan kishining nafsni “nafsi lavvoma” deb ataladi.

Nafsi lavvoma sohiblari kishining yashashi uchun zarur boʻlgan nafsoniy talablarini halol yoʻl bilan meʼyoriy oshirmasdan qondiradi. Natijada bunday kishilar oʻzgalarni ham mamnun qilgan holda tinch va farovon hayot kechiradi.

“Nafsi mutmainna” iborasidagi “mutmainna” soʻzi ishonch hosil qilgan, xotirjam boʻlgan degan maʼnodadir. Nafsi mutmainna sohiblarining nafsni batamom jilovlangan boʻlib, bular nafsning gʻalayonidan qutulib, xotirjam boʻlgan kishilardir.

Nafsi ammora sohibiga qahru gʻazab xos boʻlgani holda nafs lavvoma egasiga mehru shafqat xos. Unga tajovuz xos boʻlsa, bunga ibo, tortinish xos. Unga uyatsizlik, surbetlik xos boʻlsa, bunga hayo, adab xos. Unga mammanlik, mutakabbirlik xos boʻlsa, bunga kamtarlik va tavoze xos. Unga haromxoʻrlik, bunga halollik xos. Unga hirs, ochkoʻzlik xos boʻlsa, bunga qanoat xos. Unga oʻzgalarni koʻrolmaslik xos boʻlsa, bunga hatto oʻzida yoʻq narsalar oʻzgalarda boʻlsa, xuddi oʻzida borday xursand boʻlish xislati xos. Nafsi ammora sohiblarini hamma qoralasa, nafs lavvoma sohiblarini hamma hurmat qiladi. Shuning uchun sogʻlom jamiyat aʼzosi­ning aksarini nafs lavvomaga ega kishilar tashkil qilib, nafs ammora egalari sogʻlom kishilar orasida kam boʻladi.

Endi nafs mulhamaga kelsak, mulhamaning lugʻaviy maʼnosi ilhomlangan, ilhomlidir. Ilhom deganda, kishiga biror sirli hodisaning toʻsatdan ayon boʻlishi tushuniladi. “Nafsi mulhama” deganda esa kishida turli jozibali istaklar uygʻotuvchi kuch tushuniladi. Bunday nafs koʻproq ilm, hikmat va sanʼat ahli­da boʻladi. Bunday nafs egalarga hayajon, ijod, fidoyilik, goʻzallik va sanʼatni sevish kabi xislatlar xosdir.

“Nafsi mutmainna” iborasidagi “mutmainna” soʻzi ishonch hosil qilgan, xotirjam boʻlgan degan maʼnodadir. Nafsi mutmainna sohiblarining nafsni batamom jilovlangan boʻlib, bular nafsning gʻalayonidan qutulib, xotirjam boʻlgan kishilardir. Boshqacha qilib aytganda, bular nafs talablarini xayoliyga ham keltirmaydigan aziz kimsalar. Bularga eng yuksak insoniy xislatlar xos.

“Javhar” soʻzi. Buning asli “gavhar” soʻzidir. Lekin hozir bular ikki mustaqil soʻzga aylangan va “javhar”ning “gavhar”ga nisbatan maʼnosi koʻproq. “Gavhar” soʻzining “guhar” shakli ham bor. “Guhar” shakli nazmda vazn talabi bilan uning birinchi hijosi qisqa boʻlganda ishlatiladi. “Gavhar” soʻzining yolgʻiz oʻzi “tan-nan” rukniga toʻgʻri keladi, “guhar” deb aytilganda, u “ta-nan” ruknida boʻladi. “Gavhar” deganda, umuman, karim toshlar va xususan, marvarid yoki har bir narsaning asli hamda moddasi tushuniladi. Ogahiyning quyidagi baytida “gavhar” soʻzi dur, yaʼni yirik marvarid maʼnosida ishlatilgan:

**Musaffo tishlari kulgu chogʻi
laʼli labi ichra,
Daraxshon huqqayi yoqut aro
pokiza gavhardur.**

(Daraxshon — porloq; huqqa — javohir va atriyoq qotchasidir).

“Gavhar” soʻzi fors tilidan arab tiliga “javhar” shaklida oʻtgan va shu shaklda fors tiliga qaytib kelib, boshqa tillarga ham tarqalgan. Arab adabiy tilida “g” tovushi yoʻq, ammo adabiy tildagi “j” tovushi oʻmida Misr



lahijasida “g” ishlatiladi. Misrliliklar “majlis”ni, “maglis”, “jamol”ni “gamol” deb aytdi. Mana shu xususiyatga asosan, ajam, yaʼni gʻayriarab soʻzlaridagi “g” tovushi arab adabiy tilida “j” tovushiga aylanadi. “Gavhar” soʻzining arab tilida “javhar” shaklini olishining sababi shunda. “Javohir” soʻzi “javhar”ning koʻpligi boʻlib, bu soʻz koʻproq asl toshlarning umumiy oti sifatida ishlatiladi. Ammo “javhar”ning maʼnosi va ishlatilish doirasi “gavhar”nikiga nisbatan ham keng. Lekin “gavhar” soʻzi uning dur maʼnosi nazarga olinganda istiora tarzida farzandga nisbatan ishlatilishi mumkin. Chunki sadafning qiymatga ega mahsuli dur boʻlganidek, farzand kishining eng qadrlı mahsulidir. Ammo Navoiy farzand maʼnosida “gavhar”ning umumiy maʼnoga egaligini hisobga olib, maxsus soʻz — “dur”ni ishlagan. Shoir “Farhod va Shirin” dostonida Chin xoqonining farzandsizlik davrini tavsif qilib, bunday deydi:

**Ne chekkay koʻkka boshin tojdore,
Yoʻq ersa bir dur andin yodgore.
Valaddur ul duru volid sadafdur,
Sadaf yaʼni otavu dur xalafdur.**

Agar “gavhar” va “javhar” soʻzlarining majoziy maʼnolarini nazarga olmasak, ularning haqiqiy maʼnosi ikkitadir. Birinchisi qiymatli tosh. “Gavhar” yoki “javhar” deganda, inju, yaʼni marvaridu dur, laʼl, yoqut, zumurad, zabarjad, olmos, feruza kabi karim toshlar tushuniladi. Demak, “gavhar” va “javhar” soʻzlari qiymatli toshlarning umumiy nomi sifatida qoʻllanar ekan. Bu jihatdan “gavhar”ning “javhar”dan farqi shundaki, “gavhar” tor maʼnoda marvaridga nisbatan qoʻllanishi mumkin. Buni yuqorida Ogahiy baytida koʻrdik. Ammo “javhar” soʻzi asl toshlarning ayrim tur­lariga nisbatan ishlatilmaydi.

Ikkinchi maʼnosi, bir nimaning asliy moddasini va asosini bildiradi. Bu maʼnoda “javhar” “gavhar”ga nisbatan koʻproq va kengroq isteʼmol qilinadi. “Javhari limu” deganda, “javhar” soʻzi limu (limon)ning asosiy moddasini, “sirkā javhari” deganda, sirkā tarkibidagi suvi yoʻqotilgan sirkā moddasini bildiradi.

“Javhar” soʻzining mazkur ikkinchi maʼnosiga asoslangan holda u ilmiy istiloh sifatida ham ishlatiladi. Uni ilmiy atama qilib qoʻllaganda “araz” atamasiga qarshi qoʻyadilar. Javhar mavjudot tarkibining oʻzicha mavjud boʻlgan, araz oʻzicha mavjud boʻlmay, javhar tufayli bor boʻlib turadigan jihatidir.

Agar bir kiyimga shu nuqtayi nazardan qaraydigan boʻlsak, uning matosi javhar boʻladi, rangi araz boʻladi. Chunki matoning, zotan, yaʼni mato sifatida bor boʻlib turishi uchun maʼlum bir rangning ahamiyati yoʻq. Lekin rang matosiz oʻzicha bor boʻlmaydi,

yogʻochdan qilingan buyum boʻlsa, yogʻochi, temirdan yasalgan boʻlsa, temiri javhar boʻladi. Shu buyumning javhar tufayli mavjud boʻlib turgan va oʻz vazifasini bajarishi uchun zarur boʻlmagan ustamallari araz boʻladi, ammo uning oʻz xizmatini ado etishi uchun zarur boʻlgan shakliyi jihatı “su­vrat” deyiladi. Masalan, koʻylak tanni, qoʻllarning harakatiga xalal bermaydigan va boshni ochiq qoldirgan holda oʻrab turadigan shaklga ega boʻlishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, koʻylak yengli va yoqali boʻlishi zarur. Bu uning suvratidir. Koʻylakning rangi, yoqa, yeng, etak, tugma koʻrinishlari va hokazolar arazdur. “Suvrat” soʻzi “maʼno” tushunchasiga qarshi mazmunda ham ishlatiladi. Bunda u oʻzgacha maʼno kasb qiladi.

“Suvrat”ning arazga oʻxshash jihatı bor, bu uning oʻzicha bor boʻlmay, javharga oʻrmasgan holda bor boʻlishidir. Masalan, koʻylakning suvratı namoyon boʻlishi uchun u matoga yoki boshqa biror narsaga oʻrmasishi kerak. Suvratning shu jihatini nazarda tutib, baʼzan uni amalda arazdan farq qilmaydilar. Ammo daqiqbin olimlar, jumladan, Ibn Sino suvratga javharning bir turi deb qaraydi. Suvratga mahal, yaʼni oʻrin boʻladigan javhami “hayulo” deb ataydilar. Suvrat hayulosiz namoyon boʻlmaganidek, hayulo ham suvrat­siz bor tusini ololmaydi. Koʻylak vujudga kelishi uchun uning hayulosiga, yaʼni koʻylakka moʻljallangan javhariga koʻylakning suvratı oʻrmasishi kerak. Oʻrmasish “hulul”, oʻrmasuvchi “holl” deyiladi. Arazning esa bunday vazifasi yoʻq. Shuni nazarda tutib, suvratni ham javhar turlaridan deb biladilar.

Biz “javhar”ning maʼnosini yaxshiroq tasavvur qilish uchungina koʻylakni misol keltirdik. Suhbat tikuvchilik mavzusida borganda hozir biz aytgan soʻzlar ishlatilmaydi. Bu sohaning oʻzining “koʻylaklik”, “ulgu” yoki “andoza”, “yoqali”, “yoqasiz”, “yengli”, “yengsiz”, “kalta yeng” singari maxsus soʻzlari bor. “Javhar”u “araz”, “hayulo”yu “suvrat”,



“Javhar” soʻzining mazkur ikkinchi maʼnosiga asoslangan holda u ilmiy istiloh sifatida ham ishlatiladi. Uni ilmiy atama qilib qoʻllaganda “araz” atamasiga qarshi qoʻyadilar. Javhar mavjudot tarkibining oʻzicha mavjud boʻlgan, araz oʻzicha mavjud boʻlmay, javhar tufayli bor boʻlib turadigan jihatidir.

“mahall”u “hulul” soʻzlari mavjudot haqiqatini bilishda qoʻllanadigan atamalar boʻlib, bularning maʼnosini bilmasak, klassik asarlarning gʻoyasini va estetik prinsiplarini yaxshi tushuna olmaymiz. Bu esa, oʻz navbatida, nutqimizga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Nutq odobiga rioya qilish uchun javhar toshdan jonni, fotosuratdan mavjudot suvratini, bolaning arazidan tabiat arazini farqlashimiz kerak.

“Istiora” soʻzi. Bu soʻzning lugʻaviy maʼnosi “oriyatga olish”dir. “Oriyat” aslida oldi-berdiga oid soʻz boʻlib, oʻzga kishining narsasidan badalsiz, yaʼni tekin foydalanishdir. Badal boʻlsa, yaʼni foydalanish evaziga pul, mehnat yoki biror narsa berilsa, ijora yoki

ijara hamda kiro yoki kira boʻladi. Oriyat va ijorada ori­yatga yoki ijoraga olingan narsaning faqat manfaati olinadi, undan vaqtincha foydalaniladi, egalik huquqi esa oʻz egasida qoladi. Agar oʻsha narsaning oʻzi ham olinsa, yaʼni egalik huquqi ham oluvchiga oʻtsa, buning badali “bay”, jumladan, pul badaliga olingani “sotib olish”, badalsizi “hiba” yoki “sovgʻa” deyiladi.

Demak, ori­yat oʻzgaga tegishli narsadan bebadal foydalanib turish ekan.

Endi istioraga qaytaylik. Istioraning lugʻaviy maʼnosi ori­yatga olish dedik. Uslubda ham soʻzni, bir narsani ori­yatga olib ishlatishga oʻxshatib qoʻllash bor. Masalan, “arslon” soʻzi hammamizga maʼlum yirtqich hayvonni anglatadi. “Arslon” soʻzining oʻsha hayvonni anglatishi uning vazʼiy yoki haqiqiy yokud asliy va yana oʻz maʼnosi deyiladi. Bu zamonaviy lingvistikada “nominativ maʼno” deb ataladi. Rus tilshunosligida “nominativ maʼno” terminidan boshqa yana ikkita “pryamoye znachenie” va “sobstvennoye znachenie” degan atamalar qoʻllanadi. Baʼzi oʻzbek tilshunoslari soʻzning oʻz maʼnosini “soʻzning toʻgʻri maʼnosi” deb ataydi. Bu oʻsha “pryamoye znachenie”ning notoʻgʻri tarjimasidir. “Pryamoye dopolneniye”ni, yaʼni bevosita toʻldiruvchini “toʻgʻri toʻldiruvchi” deb boʻlmaganidek, soʻzning haqiqiy maʼnosini ham “toʻgʻri maʼno” deb boʻlmaydi. Ilmiy lingvistik asarlarda “nominativ” atamasini ishlatgan maʼkul. Ommabor nutqda “haqiqiy”, “asliy” va “oʻz” soʻzlarining hammasidan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, “arslon” soʻzining oʻz maʼnosi maʼlum hayvon, yaʼni sherni bildirishdir. Mana shu “arslon” yoki “sher” soʻzini soʻzlovchi arslonga oʻxshagan shijoatli va mardona yigitga nisbatan ishlat­sa, bu istiora boʻladi. Bunda soʻzlovchi arslonni bildirish uchun yaratilgan soʻzni yigiti­ni ifodalash uchun ori­yatga olganday boʻladi. Bu badiiy vosita



boʻlib, uslubga xos atamadir. Shuning uchun rus sharqshunoslari aniq taʼbir kerak boʻlganda “istiora”ni tarjima qilmasdan ishlatadi. Oʻz navbatida, metafora ham tarjima qilinmay, oʻzicha qoʻllana beradi. Biroq metaforani bilgan kishiga istiorani, istiorani bilganga metaforani tushuntirishda bularni qiyoslab izohlash mumkin.

Sheʼrda “may” soʻzi va maʼnodoshlari istiora tarzida ilmu maʼrifat va ishuq muhabbat maʼnolarida qoʻllanishi mumkin. Soʻzni nazarda tutmasdan, shu soʻz bildirgan narsaning tuzini eʼtiborga olganda, yaʼni, masalan, “may” soʻzini emas, mayning oʻzini ilmu maʼrifat va hokazolaming timsoli deb tasavvur qilinganda, buni “ishora”, “ramz” yoki “simvol” deb ataydilar. Agar shu tasavvurga asoslanib yana soʻzga qaytilsa-yu, soʻzning maʼnosi nazarga olinsa, bu ramziy yoki simvolik maʼno deyiladi. Agar ramz yoki simvoliy sistemasi eʼtiborga olinsa, buni “ishorot”, “rumuz” yoki “simvolika”, deydlar.

Endi shoir soʻzlarni, jumladan, “may” soʻzini oʻz maʼnosida yoki istiora tarzida qoʻllaganini qanday bilim­iz degan savol tugʻiladi. Uning javobi bunday:

birinchidan, shoirning qaysi adabiyotga mansubligini nazarga olish kerak. Qabih adabiyot vakilidan maʼrifat emas, fisqu fujur oʻrganish mumkin. Klassik shoir va buyuk olimdan esa ichkilikbozlik targʻib qilinishini kutish mumkin emas.

Ikkinchidan, asarning mavzusi va mazmunini hisobga olish kerak. Agar mavzu ichkilik haqida boʻlsa, “may” soʻzi va maʼnodoshlari asar mazmunida boʻladi va bunda shoirning ichkilikka munosabati bayon qilinadi. Agar mavzu ilmu maʼrifat boʻlsa, mazkur soʻzlar asarning formasida boʻladi va bu holda ular oʻz maʼnosida qoʻllanmagan hisoblanadi.

Uchinchi belgi shundan iboratki, mazkur soʻzlar ichkilik darajasiga sigʻmaydigan mutlaq tushunchalarga nisbatan qoʻllangan boʻladi yoki shunday tushunchalar tarkibida beriladi. Masalan, shoir mayni men tok vujudga kelmasdan ilgari ichganman yoki “Qabrim yonidan oʻtgan odam, may hidiga mast boʻladi”, desa, gap ichkilik haqida emasligi maʼlum boʻladi.

Endi misollarga oʻtaylik. Mayparastlikda mashhur boʻlgani uchun Umar Xayyomdan boshlaymiz. Umar Xayyom buyuk olim boʻlgan. Shuning uchun uning oʻziga mansub ruboiylarida “may” soʻzi va uning maʼnodoshlari ilm va uning lazzatini ifodalash uchun istiora qilinadi.

Ilmiy maʼlumotdan xabar topishning, ayniqsa, biror ilmiy haqiqatni kashf qilishning kishiga ulugʻ lazzat bagʻishlashini eng qadimgi olimlardan tortib, hozirgi olimlarga gacha taʼkidlagan. Kashf qilingan yoki idrok etilgan haqiqatning darajasi qancha ulugʻ boʻlsa, lazzati ham shunchalik lazziz boʻladi. Bu lazzatni tatib koʻrgan olim ilmini oʻzga maqsadlar, jumladan, obroʻyu shuhrat, mansab qozonish vositasiga aylantirmaydi.

Ilmiy vositaga aylantirganlardan haqiqiy yiroqlashadi va uning ilmiy ham ilmiy yangilikdan koʻra, eski boʻlsa ham, jamiyat va uning aʼzolari, jumladan, oʻzlariga zararli boʻlgan mayda gaplarni, turli gʻiybatlarni afzal koʻradigan kishilarga, toʻgʻrirogʻi, nokishilarga aylanadi. Bunday olimlarga nisbatan ilimga qiziqqan avom kishilar yaxshiroq boʻlib, bular ilm xosiyatidan mazkur ilmfurushlarga nisbatan koʻproq bahramand boʻladi.

Endi Umar Xayyomga quloq soling. Uning bir ruboiysi bunday:

**Akun ki guli saodat pur borast,
Dasti tu zi Jumi may chiro bekorast.
Mayxoʻr ki zamona dushman gʻaddorast,
Daryoftani roʻzi chinun dushvorast.**

Yaʼni “Hozir saodatning guli serhosil paytda nega qoʻling may jomi bilan mashgʻul emas?

May ichib qol: chunki zamona oʻta bevafo dushman­dir. Bugungiday kunni topish qiyin”.

Mana shu ruboiydagi “may” va “jom” soʻzlari istiora boʻlgani uchun buni quyidagicha tushunish kerak:

“Hozir kuch-quvvatga toʻlgan saodat gulidan moʻl hosil olishing mumkin boʻlgan navqiron paytında oʻzingni oʻzing ichkilik bilan zaharlamasdan va boshga behuda ishlar bilan mashgʻul boʻlmasdan, iroda qoʻlini ishga solib, koʻngil jomini maʼrifat mayi bilan toʻldir. Kishini badbaxt qiladigan ichkilikni emas, saodatga musharraf etadigan maʼrifat mayini hozir imkon borida ichib qol. Chunki zamona hozirgi yoshliging, kuch-quvvating va imkoniyatining va oxiri joningdan ham seni judo qiladigan gʻaddor dushman­dir. U seni qaritib, turli dardlarga muhtalo qilganda, bunday kunlarni topolmaysan va bu dunyodan oʻkinchu nadomat bilan oʻtasan”.

Hofiz Sheroziy:

**Aloye ayyuha soqiy,
adir kaʼsan va nozilho
Ki ishq avval namud oson,
vale oʻfgod mushkilho,**

yaʼni “Qani, ey soqiy, bir kosani aylantirib, uni menga ham yetkaz. Chunki ishq avval oson koʻrinib, keyin qiyinchiliklar yuz berdi”, deydi.

Bu baytdagi soqiydan murod maʼrifat tarqatuvchi kishidir. Kosadan maqsad maʼrifatdir, ishq esa maʼrifat ishqidir. Binobarin, bu baytning haqiqiy mazmuni bunday boʻladi:

“Ey maʼrifat oshiq­larining ustozı, maʼrifat idroki menga avval osondek koʻringan edi, ammo buning koʻpgina qiyinchiliklari chiqib, mening unga ishqimni usaytira boshladi. Shuning uchun sen davrangga yigʻilgan shogirdlaringni, jumladan, meni maʼrifat sirlaridan bir ozgina ogoh qilib, soviyotgan koʻnglimizni qizdir!”.

Abdurahmon Jomiy:

**Jahdi mul kunki, boz ahdi gulast,
Ahdı gulro qarına jahdi mulast,
yaʼni “Gul ahdi, gul fasli keldi, mul jahdini, yaʼni may harakatini qil”, deydi. “Gul ahdi” iborasi bilan “mul ahdi” iborasi vazn, qofiya va shakldoshlik jihatidan bir-biriga mos boʻlgani uchun bir sanʼatli sajʼning ikki boʻlagidan iboratdir. Bularning biri ikkinchisining ham boʻlishini taqozo qiladi.**

Bu baytda ham mul, yaʼni may — maʼrifat, gul ahdi, yaʼni gul vaqtı esa umr bahori va maʼrifat kasbi uchun ishtiyoq boʻyı qulay paytdir. Shunga koʻra baytning haqiqiy mazmuni mana bunday:

“Tabiatning bahori gullab, maʼrifat mayidan lazzat olish uchun qulay sharoit tugʻildi. Shunga hozirlik koʻr, vaqtı moʻldan berma. Shunday qilish kerakligini “gul ahdi” bilan “mul jahdi” iboraları orasidagi shakliy uygʻunlik ham talab qilib turibdi”.

**Gul davrida ich bodanikim,
oqil emastur,
Har kimki bu kun dunyoda
hushyor topilsa,**

deydi. Bu baytdagi gul davridan murod yana oʻsha umr bahori, yaʼni kishining ilm oʻrganib, hunar egallaydigan yoshlik davri va boda, yaʼni maydan maqsad maʼrifatdir. Binobarin, bu baytni bahorni ichkilikbozlik qilib, koʻngilni aynitib, boshingni ogʻritib oʻtkaz deb emas, balki quyidagicha tushunish kerak:

“Umrdan yaxshi hosil olish uchun uning gul davridagidek gullaydigan, hosilga zamin tayyorlovchi yoshlik davrida ichkilik emas, maʼrifat bodasini ich. Kimki bu dunyoda ichkilik tufayli es-hushini yoʻqotmagan boʻlsa-yu, hunar oʻrganib, ilm olib, haqiqat sirlarini bilishga intilib, kamolot hosil etishga harakat qilmasa, uni aqlli kishi deb boʻlmaydi”.

**Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik**